XALQ DEPUTATLARI ZAFAROBOD TUMAN KENGASHI QARORI

2023 - yil 29 - dekabr VI-62-127-3-50-K/23 Zafarobod tuman hokimligi

Zafarobod tumanining 2024 yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalari, Byudjet kodeksining 99-moddasi, 2023 yil 25-dekabrdagi “2024 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-son Qonuniga muvofiq hamda Jizzax viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023 yil 27 dekabrdagi 01-20-08-01-33/426-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Zafarobod tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2023 yil 25-dekabrdagi “2024 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-son Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining 2023 yil 29-dekabrdagi VI-50-301-3-0-K/23-sonli qarori va Jizzax viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023 yil 27 dekabrdagi 01-20-08-01-33/426-sonli xatiga asosan Zafarobod tumani mahalliy byudjetining 2024 yil uchun daromadlari 218013,8 mln. so‘m, shundan tuman mahalliy byudjeti daromadlari 45603.8 mln. so‘m (o‘tkazib beriladigan soliq 9096.8 mln. so‘m), xarajatlari 97453,9 mln. so‘m prognoz qilinganligi hamda Respublika byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar 42753,3 mln. so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2024 yil uchun tuman mahalliy byudjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2024 yil uchun tumanning tuman byudjetidan hududiy byudjet

mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2024 yil uchun tuman byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha viloyat mahalliy byudjeti bilan tuman mahalliy byudjetlarining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda Jizzax viloyati bo‘yicha G‘aznachilik boshqarmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

6. 2024 yil uchun tuman mahalliy byudjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi hamda viloyat byudjetidan tuman mahalliy byudjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari 4- va 5-ilovalarga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Bunda, tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy byudjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2024 yil uchun tumanning tuman byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 867,1 mln. so‘m miqdorida belgilansin.

Tuman byudjetining 2024 yil uchun zaxira jamg‘armalari tegishli byudjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining (bundan tuman byudjetining jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga doir mablag‘lari mustasno) kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Tuman byudjetini ijro etishda yuqori turuvchi byudjetdan ularga ajratiladigan byudjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli byudjetlarining zaxira jamg‘armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmaydi.

Viloyat mahalliy byudjetining zaxira jamg‘armasidan mablag‘lar ajratilgan taqdirda ushbu qarorga o‘zgartirish kiritilmaydi.

8. 2024 yil uchun tuman mahalliy byudjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 359,0 mln. so‘m miqdori 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

9. 2024 yil uchun tuman byudjetining daromadlarini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari

2024 yilda quyidagi soliq turlari:

a) tuman byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

b) Quyidagilar viloyat mahalliy byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

aylanmadan olinadigan soliq;

qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan jarimalar;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlardan, g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan, shuningdek avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga (ijaraga) berishdan va sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar;

v) Tuman mahalliy byudjetiga quyidagi ulushlarda:

aksiz solig‘i (benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq daromad

solig‘i) Zafarobod tumanida 100 foizi o‘tkaziladi;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq Zafarobod tumanida 10 foizi o‘tkaziladi.

10. Mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar tegishincha 2023 yilning 1 iyul holatiga ko‘ra tuman aholisining viloyat aholisi sonidagi ulushiga muvofiq o‘tkazib beriladi.

11. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Adilov), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Do‘stnazarov), tuman soliq inspeksiyasi (A.Islomov) tuman hokimligi mas’ul bo‘limi va tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli byudjetni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy byudjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

12. Tuman soliq inspeksiyasi (A.Islamov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq

nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

13. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Do‘stnazarov), tuman soliq inspeksiyasi (A.Islomov), Kadastr agentligi tuman bo‘limi (B.Begashev) 2022 yildan boshlab yuridik shaslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 m^2 uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, viloyatda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin va ushbu soliq turi undirilishi borasidagi o‘zgarishlar tadbirkorlik sub’ektlariga iqtisodiy jihatdan qanday ta’sir etishi yuzasidan doimiy monitoring o‘rnatib, Xalq depututlari tuman Kengashi sessiyasiga axborot kiritib borsin.

14. Tuman soliq inspeksiyasi (A.Islomov), Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish inspeksiyasi Jizzax mintaqaviy inspeksiyasi hamda tuman hokimligi bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan kar’erlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan kar’erlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan kar’erlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan kar’erlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

15. Majburiy ijro byurosi tuman bo‘limi (O.Navro‘zov) tuman soliq

inspeksiyasi (A.Islomov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha amaliy chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

16. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘linmasi (M.Abirqulov), oila va xotin-qizlar bo‘limi (Sh.Mavlonova), tegishli tuman tashkilotlari bilan birgalikda jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

17. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari J.Adilov tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra tumanda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va
video-materiallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini «ye-ijro auksion» maydonchasi orqali sotish ishlarini jadallashtirish vazifasi yuklatilsin.

18. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari J.Adilov, tuman soliq inspeksiyasi (A.Islomov), tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Do‘stnazarov) davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan 2024 yilning 1 iyuliga qadar 2023 yil yakunlari bo‘yicha o‘z sof foydasining 50 foizidan kam bo‘lmagan miqdoridagi ajratmalar va davlat ulushi bo‘yicha dividendlarni 2024 yilning 1 sentyabridan kechiktirmay tegishli darajadagi byudjetlarga o‘tkazilishini ta’minlasin.

19. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari J.Adilov tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda tashqi reklama ob’ektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan

holda, ushbu tashqi reklama ob’ektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni byudjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatish va har chorakda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Kengashga hisobot berish vazifasi yuklansin.

20. Tuman irrigatsiya tizimlari bo‘limi (Sh.Sharipov) va tuman soliq inspeksiyasi (A.Islomov) tegishli tuman tashkilotlari bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy byudjetlarga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishoq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

21. Tuman ichki ishlar bo‘limi (B.Musurmonov), tuman yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi (G‘.Erbekov), Davlat xizmatlari agentligi tuman bo‘limi (X.Norxo‘jaev) hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida o‘rnatilgan tartibda byudjetga undirish choralarini ko‘rib borsin.

22. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Do‘stnazarov), byudjet intizomiga qat’iy rioya etilishi ustidan doimiy monitoring ishlarini kuchaytirsin;

byudjet intizomini buzish holatlari bo‘yicha har oy yakuni bilan Kengashga axborot kiritib borsin;

o‘tkazilgan nazorat tadbirlari yakuni bo‘yicha kamomad va noqonuniy o‘zlashtirishga yo‘l qo‘ygan soha rahbarlarining hisoboti har chorakda eshitib borilsin.

23. Belgilab qo‘yilsinki, ushbu nazorat organlari tomonidan tuman mahalliy byudjetidan mablag‘ bilan ta’minlanadigan tashkilotlarni tekshirish davomida aniqlanmagan va kelgusida tergov organlari, shuningdek, yuqori nazorat organlari tomonidan aniqlanadigan qonun buzilish holatlari, jumladan, o‘zlashtirish va kamomadlar bo‘yicha ushbu tashkilotlar bilan birdek javobgar hisoblanadi.

24. Xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi:

mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi

hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida byudjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga, monitoring qilishga;

mahalliy byudjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etish va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

25. Tuman budjeti jami xarajatlarining umumiy xarajatlarining 11,4 foizi miqdorda rejalashtirish hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek, qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

26.Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Adilov), xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati, tegishli mutasaddi tashkilotlar:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga har chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

27. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari J.Adilov Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

28. Mazkur qaror “Zafar yo‘lidan” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining zafarobod.jizzax.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

29.Ushbu qaror qabul qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

30. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi va tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi  **O'.Raxmanov**

Xalq deputatlari Zafarobod tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-62-127-3-50-K/23-son qaroriga
1-ilova

2024 yil uchun tuman mahalliy budjeti daromadlari prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	2024 yil uchun kontingent reja	Shundan	
			Tuman budjetiga	viloyat budjetiga
Jami Daromad		**218 013 813,0**	**54 700 613,0**	**163 313 200,0**
Jami soliq rejasi		**208 917 000,0**	**45 603 800,0**	**163 313 200,0**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	100298000	10 029 800,0	90 268 200,0
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	34387000	17 193 500,0	17 193 500,0
3	Korxonalarning aylanmasidan soliq	2607000	0,0	2 607 000,0
4	Aksiz solig‘i, jami	975000	975000	0,0
	shu jumladan:			0,0
	- benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq	*975000*	975 000,0	0,0
5	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	14941000	2 988 200,0	11 952 800,0
6	Yuridik shaxslar yer solig‘i	8944000	1 788 800,0	7 155 200,0
7	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	2751000	2 751 000,0	0,0
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	3200000	3 200 000,0	0,0
9	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2590000	2 590 000,0	0,0
10	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovi	16000	16 000,0	0,0
11	Noruda qurilish materiallari uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	34775000	3 477 500,0	31 297 500,0
12	YaTT uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	269000	269 000,0	0,0
13	Davlat boji	1144000		1 144 000,0
14	Jarimalar	1041000		1 041 000,0
15	Yig‘imlar	315000		315 000,0
16	Davlat unitar korxonlari sof foydasidan ajratma	14000		14 000,0
17	Xususiylashtirishdan tushim	650000	325 000,0	325 000,0
18	Boshqa tushumlar			0,0
19	**Respublika budjetidan o‘tkazib beriladigan daromadlar**	**9 096 813,0**	**9 096 813,0**	**0,0**
	shu jumladan:			0,0
	Aroqdan aksiz solig‘i (shu jumladan pivo)	3 943 172,0	3 943 172,0	0,0
	Tamaki maxsulotlariga aksiz solig‘i	3 565 323,0	3 565 323,0	0,0
	Mobil aloqa xizmatidan aksiz solig‘i	1 588 318,0	1 588 318,0	0,0

Xalq deputatlari Zafarobod tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-62-127-3-50-K/23-son qaroriga
2-ilova

2024 yil uchun tumanning tuman budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	tuman budjeti
Xarajatlar miqdori, Jami		**97 453 876,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**97 453 876,00**
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
1	**Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi**	**15 087 625,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	15 087 625,0
	shundan:	
	Maktabgacha ta’lim tashkilotlari qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta’mirlash bo‘yicha xarajatlar	
	Umumta’lim maktablari qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta’mirlash bo‘yicha xarajatlar	
2	**Sog‘liqni saqlash boshqarmasi**	**38 496 224,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	38 496 224,0
	shundan:	
	Viloyat Sog‘liqni saqlash boshqarmasini saqlash xarajatlari	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
3	**Madaniyat boshqarmasi**	**2 711 386,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 711 386,0
	shundan:	
	tuman madaniyat bo‘limini saqlash xarajatlari	117 403,0
	tuman Musiqa va san’at maktabi	1 716 134,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
4	**Yoshlar siyosati va sport boshqarmasi**	**4 742 898,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 742 898,0
	shundan:	
	tuman Sport maktabi saqlash xarajatlari	3 488 156,0
	Yoshlar agentligi tuman bo‘limini saqlash xarajatlari	1 254 742,0
	Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari kalendar rejalari xarajatlari	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
5	**Qishloq xo‘jaligi bo‘limi**	**1 345 125,0**

	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 345 125,0
	shundan:	
	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limini saqlash xarajatlari	903 134,0
	Zafarobo tuman fermer, dexkon xujaliklari va tomorka yer egalari Kengashlari xuzuridagi FXBXXYu Markazi	441 991,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
6	**Irrigatsiya bo‘limi**	**800 104,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	800 104,0
	shundan:	
	Suv xo‘jaligi tizimi tashkilotlarini saqlash xarajatlari	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
7	**Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi**	**2 239 855,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	
	shundan:	
	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi xarajatlari	2 239 855,0
	Hududiy moliya organlarining malaka oshirish xarajatlari	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
8	**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi**	**2 730 707,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 730 707,0
	shundan:	
	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘linmasi	1 999 797,0
	Oila va xotin-qizlar bo‘limi	730 910,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
9	**Soliq bo‘limi**	**2 963 444,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 963 444,0
	shundan:	
	Soliq qo‘mitasiining hududiy organlarini saqlash xarajatlari	
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
10	**Tuman hokimligi**	**26 336 508,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**26 336 508,0**
	shundan:	
	Hokimliklarni saqlash xarajatlari	2 389 315,0
	Xalq qabulxonasi	109 760,0
	Hokim yordamchilarini saqlash xarajatlari	1 029 971,0
	Hokimliklarning zahira jamg‘armalari	867 067,0
	Xalq deputatlari Kengashi kotibiyati	241 877,0

	Fuqarolarning tashabbusli jamg‘armasi	9 880 127,0
	Mahalla budjeti jamg‘armasi	456 177,0
	tuman Kunikma markazi	65 789,0
	Axborot kutubxona markazlari	512 022,0
	tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	10 784 403,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

Xalq deputatlari Zafarobod tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-62-127-3-50-K/23-son qaroriga
3-ilova

2024 yil uchun tuman budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari

Foiz hisobida

T/R	Tuman nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	Jismoniy shaxslar yer solig‘i	Jismoniy shaxslar mol-mulk solig‘i	Ijara to‘lovi	Aksiz solig‘i: - benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq	Yuridik shaxslar yer solig‘i	Suv resurslari-dan foydalan-ganlik uchun soliq	Noruda qurilish material-lari uchun yer qa’ridan foydalan-ganlik uchun soliq	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Xususiy-lashti-rishdan tushum (Davlat ob’ekt-larini sotishdan tushum)
1	Zafarobod tumani	50	10	100	100	100	100	20	100	10	20	50

Xalq deputatlari Zafarobod tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-62-127-3-50-K/23-son qaroriga
4-ilova

Tuman mahalliy budjetlarining 2024 yil daromadlari rejasi

ming so‘mda

Hudud nomi	Jami daromad	shundan			
		O‘tkazib beriladigan daromad (Aksiz mobil, tamaki va alkogol)	Soliq rejasi	shundan	
				tuman mahalliy budjetiga ajratma qilinadigan daromadlar miqdori	Viloyat mahalliy budjetiga ajratma qilinadigan daromadlar miqdori
Zafarobod tumani	218 013 813,0	9 096 813,0	208 917 000,0	45 603 800,0	163 313 200,0

Xalq deputatlari Zafarobod tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-62-127-3-50-K/23-son qaroriga
5-ilova

Tuman mahalliy budjetining 2024 yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming so‘mda

Hudud nomi	Jami daromadlar	shundan			Mahalliy budjet xarajatlari
		Mahalliy budjet daromadlar	O‘tkazib beriladigan daromad (Aksiz mobil, tamaki va alkogol)	Tartibga soluvchi transfert miqdori	
Zafarobod tumani	97 453 876,0	45 603 800,0	9 096 813,0	42 753 263,0	97 453 876,0

Xalq deputatlari Zafarobod tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-62-127-3-50-K/23-son qaroriga
6-ilova

Tuman mahalliy budjetlarida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
1	Zafarobod tumani	**359 000,0**